



GLOBAL INFLATSIYANING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

IMPACT OF GLOBAL INFLATION ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

¹Mirzayev Mirza
Abdullayevich,
²To'rayeva O'g'iloy
G'iyosovna

¹PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, ²Toshkent
davlat iqtisodiyot universiteti, Moliya fakulteti talabasi

Annotatsiya Annotation

Uzb - Ushbu maqolada global inflatsiyaning yuzaga kelishi, O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy va ijobiy ta'sirlari o'rganilgan hamda mamlakatimizda inflatsiya darajasini nazorat qilish va uni barqaror ushlab turish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilingan.

Eng - This article examines the emergence of global inflation, its negative and positive effects on the economy of Uzbekistan, and discusses the measures being taken to control the level of inflation in our country and maintain it stable.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ Barqarorlik, inflatsiya, iste'mol narxlari indeksi, valyuta kursi, valyuta qadrsizlanishi, inflyatsion targetlash, pulning xarid qobiliyati, jahon moliyaviy inqirozi, talab-taklif.

❖ Stability, inflation, consumer price index, exchange rate, currency depreciation, inflation targeting, purchasing power of money, global financial crisis, supply and demand.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotidagi salbiy tendensiyalar oqibatlari rivojlanayotgan mamlakatlarga o'zining ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi va ularning iqtisodiy tizimidagi barqarorlikka jiddiy tahdid soladi. Global inflatsiyaning O'zbekistonga ta'sirini tadqiq qilishning ahamiyati shundaki, global krizislar paytida vujudga kelgan global inflatsiya bevosita O'zbekistonning eksport-import salohiyatiga, valyuta kursi barqarorligiga, investitsiya oqimlariga, bandlilik darajasining tushib ketishiga va xalqaro savdodagi qiyinchiliklarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi mamlakat iqtisodiyotiga anchagina zarar berdi. Pandemiya O'zbekistondagi uy xo'jaliklari va firmalarning

sof daromadlari keskin qisqarishiga sabab bo'ldi, natijada ularning 50 foizidan ko'p qismi uch oydan ortiq muddat davomida hattoki o'zlarining asosiy ehtiyojlari bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ham ta'minlab bera olishmadi. Bu krizis global qashshoqlik hamda tengsizlikga olib keldi. 2022-yil fevral oyida boshlangan Rossiya-Ukraina davlatlari o'rtasidagi siyosiy nizolar O'zbekistonga sezilarli darajada iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Aynan shu yilda 2021-yilga nisbatan inflatsiyaning 0,6 foizga ko'tarilishi aynan global oziq-ovqat va energiya narxlarining oshishi, xalqaro transport narxlarining ko'tarilishi, Rossiyadan kelgan migrantlarning ko'payishi natijasida yuzaga kelgan iste'mol tovarlari, xizmatlari va uy-joyga bo'lgan talabning oshishining oqibatidir.

2022-yilda Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi eksport va import ko‘rsatkichlari o‘shishiga qaramasdan, Rossiyaning O‘zbekistonning umumiy eksport va import hajmidagi ulushi kamaygan. Natijada, boshqa davlatlar orqali savdoni amalga oshirishga majbur bo‘lindi, afsuski, bu yetkazib berish narxining oshishi va muddatining uzayishiga olib keldi. Bularning barchasi global inflatsiyaning O‘zbekistonga ta‘siri mavjudligi va bu muammoga qarshi kurashish qanchalik bu mavzu dolzarbligini anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar fikrini keltirib o‘tishdan avval, “inflatsiya” va “global inflatsiya” tushunchalariga to‘xtalsak. Dunyodagi har bir mamlakatda inflatsiya qandaydir darajasini ko‘rish mumkin va shunisi haqiqatki, inflatsiya mamlakatdan butunlay yo‘qolmaydi. Inflatsiya pul emissiyasining ko‘payishi (pulning ko‘payib ketishi), narxlarning mutassil oshib ketishi va umuman olganda, bozordagi talab va taklif nomutanosibligidan kelib chiqadi.

Iqtisodchi olim I. Sayfiddinov inflatsiyaga quyidagicha ta‘rif bergan: Inflatsiya – bu, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproporsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to‘xtovsiz o‘shishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi va pul birligining qadrsizlanishidir.

Global inflatsiya esa nomi bilan ko‘rinib turganidek, u jahon bo‘yicha inflatsiya darajasining oshib ketishini anglatadi va odatda rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy inqiroz va inflatsiyaning yuqori darajasi o‘sha davlatlar bilan ham iqtisodiy ham siyosiy bog‘lanib qolgan boshqa rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotiga katta salbiy ko‘rsatadi va inflatsiya darajasining oshishiga olib keladi. Bu jarayon “global inflatsiya” deb nomlanadi.

Ba‘zi xorijlik iqtisodchilar Rossiya-Ukraina o‘rtasidagi siyosiy nizolarini global inflatsiyaning jadallashuviga ta‘sirini

o‘rganishgan. Anup Kumar Maurya fikriga ko‘ra, 2020-yil yanvar oyidan 2022-yil iyun oyigacha bo‘lgan davr mobaynida Rossiya-Ukraina nizolarining global inflatsiyaga ta‘sirini 60 ta davlatlar iqtisodiyotlari uchun iste‘mol narxlari indeksi ma‘lumotlari bilan bog‘liq voqealarni o‘rganishga asoslangan yondashuvdan foydalangan. Haqiqatdan ham, Rossiya va Ukraina boshqa judayam ko‘plab mamlakatlar bilan iqtisodiy jihatdan uzviy bog‘liqligi bu nizolarning global inflatsiyaning o‘shishiga katta zamin yaratgan, deb aytadi.

Inflatsiyaga qarshi kurashish va uning darajasini muvozanatda saqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrda “Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5877-son Farmoniga ko‘ra, Markaziy bank zimmasiga 2020-yilning 1-yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflatsion targetlash rejimiga o‘tkazishni ta‘minlash vazifasi yuklatildi. Bilamizki, bir mamlakatdagi inflatsiya darajasining har yili keskin ravishda o‘zgarib turishi o‘sha mamlakatning rivojlanishiga juda katta xavf-xatar tug‘diradi, sababi shundaki, xorijiy investorlar ular investitsiya kiritmoqchi bo‘lgan mamlakatdagi inflatsiya darajasini kuzatib boradi va uning yaqin oradagi darajasini ko‘z oldiga keltirgach, sarmoya olib kirishga harakat qiladi. Lekin inflatsiya darajasining mutassil ravishda o‘zgaruvchan tendensiyasi investorlarni cho‘chitadi va ularning o‘sha mamlakatga investitsiya kiritmaslik ehtimolligi ancha yuqori bo‘ladi. Inflatsion targetlash rejimining maqsadlaridan bittasi shuki, Markaziy Bank kelgusi davr uchun inflatsiya maqsadi va inflatsiyaning targetdan siljish oralig‘ini oldindan e‘lon qilishidir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi ham yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, turli moliyaviy siyosatlarini amalga oshirgan holda


2030-yilga qadar yillik inflatsiya darajasini 5-6 foizga tushirishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuni o‘rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduktsion yoki induktsion usullardan foydalanish samarali bo‘ldi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullari, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda sintetik va analitik usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Inflatsiya yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, pul xarid qobiliyatining pasayishi hamda pul emissiyasining haddan ziyod oshib ketishini anglatadi. Bilamizki, O‘zbekiston ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan juda ko‘plab rivojlangan davlatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Jahonning AQSH, Rossiya, Xitoy hamda Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi gigant davlatlaridagi iqtisodiy inqirozlar, masalan, inflatsiya oshib ketishi va xorijiy valyutalarning o‘z qiymatini yo‘qotishi bevosita O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazadi.



1-rasm. Jahon miqyosida inflatsiya, iste‘mol narxlari (yillik %larda)

Yuqoridagi rasmda jahon bo‘yicha inflatsiya va iste‘mol narxlari ko‘rstakichi umumiy foizlarda aks ettirilgan va bazis yil yil sifatida 2010-yil olingan bo‘lib, bu ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, 1960-2023-yillar davomida jahon inflatsiya ko‘rsatkichi umumiy miqyosda doimiy o‘zgarib turgan. 2000-yilda inflatsiya jahon bo‘yicha 3,4%, 2001-yilda 3,8% va 2002-yilda 2,9% ni tashkil qilgan. 2003-yildan boshlab inflatsiya o‘sishni boshlagan. 2007-yilda 4,8% ni ko‘rsatib turgan inflatsiya, 2008-yilga kelib AQSHda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi tufayli 8,9% ga yetdi. Bu so‘ngi 25 yil ichidagi inflatsiya darajasining eng yuqori


nuqtasi hisoblanadi. 2008-yilgi krizisdan keyin, 2020-yilgacha inflatsiya darajasi tushib kelgan va o‘sha yilda 1,9%ni tashkil etgan. Biroq shunisi aniqki, 2020-yilda COVID-19 epidemiyasi dunyo bo‘ylab tarqalgandan keyin, shu yildan boshlab inflatsiya va iste‘mol narxlari keskin va doimiy ravishda oshib ketgan. 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich oxirgi 24 yil ichida o‘zining cho‘qqisiga yetgan, buning sababi esa aynan 2022-yil fevral oyida boshlangan Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi nizolarning salbiy ta’siridir. 2023-yilga kelib, inflatsiya darajasi biroz tushgan va 5,7% ga teng bo‘lgan.



2-rasm. Inflatsiya darajasi, o'rtacha iste'mol narxlari (yillik foiz o'zgarishi)¹

Yuqorida berilgan 2-rasmda, O'zbekistonning 2019-2023-yillardagi inflatsiya darajasi berilgan. Ko'rinib turibdiki, iste'mol narxlari indeksi umumiy olib qaraganda sezilarli darajada tushgan. 2019-yilda inflatsiya darajasi 14,5%ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 1,6%ga pasayib 12,9% inflatsiya qayd etilgan. 2021-yilda O'zbekiston inflatsiya darajasini taqriban olganda 10 foizda ushlab turishni uddaladi. Markaziy Bank

rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, valyuta tushumi eksport hisobiga 35 foiz oshishi, shuningdek, banklar va eksportchilar tomonidan valyuta ayirboshlash hajmining ortishi natijasida nisbatan barqaror kursga erishishning uddasidan chiqilgan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 0,6%ga ko'tarilgan va 11,4% ko'rsatkich kuzatilgan. 2023-yilda inflatsiya ancha pasaygan va inflatsiya darajasi 10% ga tushgan.




3-rasm. YaIM, joriy narxlar (mlrd. AQSH dollarida)²

¹ Xalqaro valyuta jamg'armasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan. (<https://www.imf.org/>)

² Xalqaro valyuta jamg'armasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan. (<https://www.imf.org/>)

Quyida berilgan rasmda 2019-yildan 2023-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining YaIM hajmining o‘zgarish tendensiyasi ko‘rsatilgan. E’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan ma’lumot shuki, koronavirus pandemiyasi sezilarli darajada iqtisodiy pasayish kuzatilgan va bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. 2019-yilda O‘zbekiston YaIM hajmi 60,284 mlrd AQSH dollariga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib biroz pasaygan va 60,225 mlrd AQSH dollari bo‘lgan. Keyingi uch yilda, YaIM

hajmi tobora oshib bordi. 2021-yilda 69,601 mlrd AQSH dollar, 2021-yilda shiddatli darajada o‘shish bo‘lgan va 81,167 mlrd AQSH dollarni tashkil etgan. 2023-yilga kelib, yana deyarli 10 mlrd AQSH dollariga o‘sgan. Bu yerda ko‘rishimiz mumkinki, 2022-yilgi Rossiya-Ukraina nizolari mamlakat yalpi ichki mahsulotiga hech qanday ta’sirini o‘tkazmagan, chunki Ukraina bilan qilinadigan savdo defitsiti boshqa sohalar va xalqaro savdo bozorlari orqali qoplangan.




4-rasm. Aholi jon boshiga YaIM, joriy narxlar (aholi jon boshiga AQSH dollari)³

4-rasmda O‘zbekiston Respublikasining Yalpi ichki mahsulotining aholi jon boshiga nisbati yillar kesimida ko‘rsatilgan. 2019-yilda bu ko‘rsatkich 1813 AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsada, 2020-yilda biroz tushgan va 1776 dollar bo‘lgan. Bu albatta 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasi tufayli ishlab chiqarishning keskin kamayib ketganligi oqibatidir. 2021-yilga kelib, O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘zini qayta tiklashni boshladi va o‘sha yilda YaIMning aholi jon boshiga nisbati 2014 AQSH dollari bo‘lishiga erishdi. Bu ko‘rsatkich yildan-yilga oshib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilda YaIM aholi jon boshiga 2301 AQSH dollar to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2023-yilda 2523 dollarni tashkil qilgan.

Quyidagi 5-rasmda COVID-19 krizisiga qarshi rivojlangan hamda rivojlanayotgan iqtisodiyotli mamlakatlarning qo‘llagan fiskal siyosati YaIM ulushi sifatida tasvirlangan. Bunda ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston pandemiya davrida Yalpi ichki mahsulotning atigi 8%ini COVID-19ga qarshi kurashish uchun sarflagan. Bu ko‘rsatkich deyarli YaIMining 50% ini koronavirusga qarshi kurashish uchun sarflagan Italiya bilan taqqoslaganda ancha kichkina ulushdir. Xulosa qiladigan bo‘lsak, bu global krizis va global inflatsiya davrlarida iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar hali endi rivojlanayotgan mamlakatlardan ko‘ra bunday global inqiroz

³ Xalqaro valyuta jamg‘armasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan. (<https://www.imf.org/>)

voqealarga nisbatan ancha kuchli javob bera oladi.



5-rasm. COVID-19 krizisiga qarshi rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarning qoʻllagan fiskal siyosati

Xulosa va takliflar.

Barcha qilingan tadqiqotlardan olgan xulosalarimizdan eng asosiysi shuki, global inflatsiya mamlakatlar bir-biri bilan ham iqtisodiy ham siyosiy jihatdan oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlganligi tufayli rivojlanayotgan va rivojlangan iqtisodlarga birdek taʼsir oʻtkazadi. Inflatsiya darajasi Oʻzbekiston iqtisodiyotida hali ham yuqori, bu iqtisodiy oʻsish va barqarorlikka salbiy taʼsir oʻtkazib kelmoqda. Tashqi global iqtisodiy voqealar, ayniqsa, global inflatsiyaning Oʻzbekistonga boʻlgan salbiy taʼsirini kamaytirish va iqtisodiy vaziyatni muvozanatlashtirib turish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda mamlakat hukumati tomonidan qator chora-tadbirlar

amalga oshirilmoqda. Mamlakat amalga oshirgan pul-kredit siyosati, valyuta siyosati ijobiy iqtisodiy holatga qaytishda juda katta rol oʻynadi. Mamlakat davlat budjeti defitsitini qoplash uchun tashqi qarz oldi va uni kerakli maqsadlarda yoʻnaltira oldi. Global inflatsiyaning salbiy taʼsirini olish uchun beriladigan takliflar:

- qulay investitsion muhit yaratishga katta eʼtibor qaratish, investitsion jozibadorlikni oshirish;

- mamlakat iqtisodiy faollikni ragʻbatlantirish va bandlikni qoʻllab-quvvatlash choralari koʻrish, jumladan, kichik tadbirkorlikni moliyalashtirishni kengaytirish, berilayotgan kreditlar imtiyoziy davrini uzaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Xalqaro valyuta jamgʻarmasining rasmiy veb-sayti maʼlumotlari asosida tayyorlangan. (<https://www.imf.org/>)
2. <https://daryo.uz/2022/01/07/ozbekistonda-yillik-inflatsiya-darajasi-keskin-pastladi-bu-nimani-anglatadi>
3. <https://kun.uz/en/news/2023/01/23/annual-inflation-in-uzbekistan-accelerated>

4. https://www.carecprogram.org/uploads/CARTIFF_2024_Day_2_3-PPT_UZB_Eng.pdf

5. Global inflation before and after COVID-19 (5-bet)

https://www.anpec.org.br/encontro/2024/submissao/files_I/i72d7c634d6c649a63fe6coobod65fdaob.pdf

6. Jahon Banki statistik ma'lumoti (<https://data.worldbank.org/indicator/FP.CPI.TOTL.ZG>)

7. Taraqqiyot strategiya markazi (<https://strategy.uz/index.php?news=857&lang=uz>)

8. Mamlakat inflatsiyasini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari (maqola)

INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC REASERCHER'S THEORY
(<https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3942>)